



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNAZAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav
jamg'armasidagi qarzdor ulushini
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI.
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

134 ISLOMOV BUNĒD OCHIOVICH

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключающие преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА

Ограничение права на молчание
в уголовном судопроизводстве:
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of
digital information as proof in criminal cases in
Republic of Kazakhstan

175 URALOV SARBON SARDOROVICH

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 347.998.72(045)(575.1)

HAKAMLIK SUDINING TUZILISHIDA HAKAMLIK BITIMI

Haqberdiyev Abdumurod Abdusaidovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: a.haqberdiyev@tsul.uz

ORCID: 0000-0001-8959-6944

Annotatsiya. Dunyoda modernizatsiya va isloh etish sharoitida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan. O'tgan davr mobaynida sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sud mustaqilligini ta'minlash, inson va fuqaro huquq-erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy choralar-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, bugungi kunda arbitraj (hakamlik) sudi bilan bog'liq muammolar ham uchrab turibdi. Ba'zi hollarda davlat sudlari bunday bitimlarni bekor qilish kerak deb hisoblaydi, boshqa hollarda ularning yuridik kuchini tan oladi va tijorat arbitraji (hakamlik sudlari) foydasiga ustuvor ahamiyat beradi. Ammo xorijiy mamlakatlarda muqobil bitim (shartnoma shart)lar tendensiyasi ijobiydir. Mazkur maqolada arbitraj (hakamlik) sudi tuzilishida hakamlik bitimi masalasi xorij tajribasini tahlil qilgan holda o'rganib chiqilgan. Hakamlik bitimining tuzilish shakli, mazmuni va unga qo'yilgan talablar xususida chet davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlarini o'rganib chiqish davomida milliy hakamlik sudlaridagi hakamlik bitimlarining mohiyati xususida to'xtalib o'tilgan. Maqolada hakamlik bitimini tahlil qilish davomida qonunchilikka takliflar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hakamlik sudi, hakamlik bitimi, vakolatli sud, arbitraj sudi, shartnoma, elektron hujjat, protsessual, appellatsiya, kassatsiya, qonun, kodeks.

ТРЕТЕЙСКОЕ СОГЛАШЕНИЕ КАК ЭЛЕМЕНТ ТРЕТЕЙСКОГО СУДА

Хакбердиев Абдумурад Абдусайдович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

старший преподаватель Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В условиях меняющегося мира осуществляемые реформы в правоохранительной и судебно-правовой сферах направлены, прежде всего, на всестороннюю защиту прав, свобод и законных интересов человека. За прошедший период были приняты масштабные организационные и правовые меры по постепенному укреплению судебной системы, обеспечению ее независимости, надежной защите прав и свобод человека и гражданина. На сегодняшний день имеются проблемы, связанные с арбитражем. На основе анализа зарубежного опыта в данной статье рассматривается вопрос третейского соглашения в системе третейского суда. В ходе изучения национальных нормативных правовых актов зарубежных стран о третейских судах рассмотрены сущность третейских соглашений, форма, содержание и требования к третейскому соглашению. По итогам анализа в статье представлены предложения по совершенствованию законодательства по третейскому соглашению.

Ключевые слова: третейский суд, третейское соглашение, компетентный суд, арбитражный суд, договор, электронный документ, процессуальный, апелляционный, кассационный закон, кодекс.

ARBITRATION AGREEMENT IN THE STRUCTURE OF THE ARBITRATION COURT

Khakberdiev Abdumurad Abusaidovich,

Acting associate professor
of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *In the conditions of modernization and reform in the world, the ongoing reforms in the law enforcement and judicial-legal spheres are aimed primarily at the comprehensive protection of human rights, freedoms and legitimate interests. Over the past period, large-scale organizational and legal measures have been taken to gradually strengthen the judicial system, ensure its independence, and reliably protect human and civil rights and freedoms. At present, there are problems associated with the arbitration. In some cases, state courts consider such transactions to be annulled, in other cases, they recognize their legal force and give priority to commercial arbitration (arbitration courts). This article discusses the issue of an arbitration agreement in the arbitration court system based on an analysis of foreign experience. In the course of studying the normative legal acts of foreign countries on the form, content and requirements for an arbitration agreement, the essence of arbitration agreements in national arbitration courts is considered. The article presents proposals for legislation as a result of the analysis of the arbitration agreement.*

Keywords: *arbitration court, arbitration agreement, competent court, arbitration court, contract, electronic document, procedural, appellate, cassation, law, code.*

Kirish

Nizolarni hal qilishning muqobil usullari deganda, qonun hujjatlari yoki taraflarning kelishuvi yoxud lokal hujjatlar bilan belgilangan va huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan nizolarni suddan tashqari hal qilishga qaratilgan tartib-taomillar, usullar va mexanizmlar tushuniladi. Ya'ni nizolar nafaqat sud hokimiyati organlari tomonidan, balki boshqa usullar yordamida (hakamlik sudlari, mediatsiya, xalqaro tijorat arbitraj sudlari) hal etilishi mumkin.

Hakamlik sudiga murojaat qilish va uni ko'rib chiqishda nizoni taqdim etish huquqiga ega bo'lish uchun tomonlar bu haqda oldindan kelishib olishlari, muayyan nizoni, nizolar guruhi yoki barcha nizolarni hal qilish uchun muayyan hakamlik sudiga o'tkazish to'g'risida o'zaro bitim tuzishi kerak.

Hakamlik sudlari tuzish va ular faoliyati to'g'risida bitimni imzolash bilan bir

vaqtda ular faoliyatini tartibga soladigan asosiy hujjatlar: Hakamlik sudi to'g'risidagi Qonun, Hakamlik sudi reglamenti, Hakamlik yig'implari va xarajatlari to'g'risidagi nizom, Hakamlik sudini boshqarish organlari to'g'risidagi nizom, Hakamlik sudylariga haq to'lash to'g'risidagi nizom va boshqalar tasdiqlanadi [1, 78-b.].

Material va metodlar

Hakamlik sudi to'g'risidagi bitimda fuqarolik nizolarini, yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma shartida yuzaga kelgan nizolarni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish to'g'risida taraflar o'rtasida erishilgan kelishuv o'z ifodasini topadi. Hakamlik sudi to'g'risidagi bitim yoki bandida ko'rsatilgan shartnomaning maqsadi nizoli huquqiy munosabatlarni hal qilish uchun hakamlik sudiga o'tkazish va unga nisbatan sud tartibini qo'llamaslikdir.

Yuzaga kelgan nizoni hal qilish uchun

hakamlik sudiga topshirish maqsadida taraflar tomonidan o‘zaro erishilgan bitim oddiy yozma shaklda, shartnomalarni tuzish uchun fuqarolik qonunchiligida man etilmagan har qanday usulda (ya’ni tomonlar imzolagan hujjatda bo‘lishi mumkin yoki xatlar, telegraf orqali almashish, shuningdek, bunday bitimning mustahkamlanishini ta’minlaydigan boshqa elektron yoki aloqa vositalaridan foydalanish orqali xatlar va xabarlar almashish yo‘li bilan) tuzilishi mumkin.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda da’vogar nizoni hakamlik sudiga o‘tkazish to‘g‘risida javobgar bilan kelishuvga ega bo‘lmagan holda, sudga da’vo arizasi bilan murojaat qiladigan holatlar mavjud. Agar bunday vaziyatda javobgar o‘z harakatlari bilan (masalan, hakamlik sudiga da’vo arizasiga javob yuborish, hakamlik sudyasini tayinlash, qarshi da’vo arizasi berish va hokazo) nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirishga amalda rozi bo‘lsa, bunday hollarda hakamlik sudi yozma kelishuvsiz ham ishni ko‘rishga kirishadi. Biroq bu umumiy qoidadan istisno emas [2, 245-, 103-, 122-, 276-, 392-b.].

Tadqiqot natijalari

V.N. Gapeyevning yozishicha “... nizoni hakamlik sudi tomonidan hal qilish uchun topshirish to‘g‘risidagi bitim eng muhim protsessual ahamiyatga ega – xuddi shu nizoni sudga ko‘rib chiqishning mumkin emasligi ... Qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanishicha, faqat hakamlik sudining o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qaroriga yuridik kuch beradi”.

A.X. Mindagulov mazkur fikrni rivojlantirish maqsadida nizoli huquqiy munosabatlarni hakamlik sudiga o‘tkazish to‘g‘risidagi taraflarning kelishuvi, birinchi navbatda, protsessual hujjat bo‘lib, unga muvofiq, nizo kelgusida ko‘rib chiqilishi va hal etilishini haqli ravishda qayd etadi [3, 3-b.].

“Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi 6-xatboshida taraflarning

nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi kelishuvi (taraflar o‘rtasidagi shunday kelishuv bo‘lib, unga ko‘ra, ular o‘rtasida yuzaga kelgan nizo hal qilish uchun hakamlik sudiga yuborilishi mumkin) ikki tomonlama huquqiy xususiyatga ega moddiy-huquqiy va protsessualdir. Qonunning 5-moddasi 1-bandida hakamlik bitimi mavjud bo‘lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkinligi yuridik fakt sifatida ko‘rib chiqilishi belgilab qo‘yilgan. Faqat tomonlar shunday kelishuv tuzgan bo‘lsa, nizo hakamlik sudiga yuborilishi mumkin. Shunday qilib, professor V.V. Yarkov ta’kidlaganidek, hakamlik bitimi ham moddiy, ham protsessual xarakterga ega bo‘lgan alohida turdagi yuridik faktlarni nazarda tutadi [4, 24-b.].

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, hakamlik bitimi tuzilganidan keyin ikki jihatga ega bo‘ladi: bir tomondan, u nizo yuzaga kelganda, tomonlarni muayyan harakatlarni bajarishga majbur qiladi (nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun ariza berish (ijobiy oqibatlar)); ikkinchi tomondan, tomonlarni nizolardan qochishga majbur qiladi (muayyan harakatlar, ya’ni nizoni davlat sudiga hal qilish uchun murojaat qilmaslik (salbiy oqibatlar) [5, 39-b.].

Shartnoma munosabatlari ishtirokchilari huquqiy layoqati va muomala layoqatiga oid umumiy talablarga javob berishi shart. Bu ham jismoniy, ham yuridik shaxslar tomonidan hakamlik bitimlarini tuzish uchun qo‘llaniladi. Taraflarning hakamlik sudi to‘g‘risida bitim tuzishining umumiy sharti, ular qonun talablariga muvofiq nizoli huquqiy munosabatlarning predmetini o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etish huquqiga ega ekanligi hisobga olinishi kerak. A.D. Keylin ingliz yuristlariga iqtibos qilib, “hakamlik bitimi o‘ziga tegishli huquqlarga ega bo‘lgan har bir shaxs ushbu huquqlarga ta’sir qiluvchi masalalarni hakamlik muhokamasiga qo‘yishga vakolatli deb e’tirof etiladi va tomonlarning huquqni amalga oshirishini

cheklaydigan har qanday holat sud qarorining qabul qilinishiga teng darajada ta'sir qiladi" [6, 107-113 b.]. Agar hakamlik muhokamasi to'g'risidagi bitim taraflarning vakillari tomonidan tuzilgan bo'lsa, ularga buning uchun tegishli ravishda rasmiylashtirilgan maxsus vakolatlar berilishi kerak. "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasiga ko'ra, da'vo arizasi da'vog'ar yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Agar da'vo arizasi da'vog'arning vakili tomonidan imzolangan bo'lsa, da'vo arizasiga ishonchnoma yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi zarur.

Amaliyotda hakamlik muhokamasi to'g'risida bitim taraflarning vakillari tomonidan tuzilishi holatlari uchrab turganligini inobatga olgan holda, ularga buning uchun tegishli ravishda rasmiylashtirilgan maxsus vakolatlar berilishi kerak. Biroq O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual (69-modda. Vakilning vakolatlari) va Iqtisodiy protsessual kodeks (63-modda. Vakilning vakolatlari)larida vakilning vakolatlariga nizoni hakamlik sudiga topshirish vakolati vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lishi kerakligi masalasi kiritilmagan. Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida FPK va IPK-larning tegishli moddalariga yuqorida qayd etib o'tilganlar bo'yicha qo'shimcha o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xalqaro amaliyotda hakamlik bitimlarining uch turi mavjud [7, 30-b.]: hakamlik shartnomasi (shartnomada hakamlik sudi bo'yicha ko'rsatilib o'tiladigan bandi), hakamlik bitimi yoki kelishuvidir. Mazkur tushunchalar, shuningdek, bir-biridan farq qiladi.

Hakamlik bandi to'g'ridan to'g'ri shartnoma matniga (shartnoma, bitim va boshqalar) kiritiladi, uning ajralmas qismi muayyan nizoga, ularning guruhiga yoki uning bajarilishi munosabati bilan kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarga nisbatan qo'llaniladi. Hakamlik bitimi (yozuv) tomon-

lar tarafidan tuzilgan alohida hujjat bo'lib, unda muayyan nizo, guruh yoki ular o'rtasida yuzaga kelgan barcha nizolarni hakamlik sudiga topshirish to'g'risidagi kelishuvni o'z ichiga oladi. Hakamlik kelishuvi – bu hakamlik sudida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish bo'yicha taraflar tomonidan tuziladigan mustaqil hujjatdir.

Har uch turdagi hakamlik kelishuvlari taraflar erishgan shartnoma munosabatlarini va nizolarni hakamlik sudida hal qilish bo'yicha qat'iy kelishuvni ifodalaydi. Dunyoning yetakchi davlatlari arbitraj (hakamlik) sudiga oid qonunchiligi tahlili asosida A.D. Keylin to'g'ri ta'kidlaydiki, yuqoridagi barcha turdagi hakamlik kelishuvlari bir-biridan mustaqil bo'lib, teng yuridik kuchga ega [8, 114-b.]. Hakamlik kelishuvi deyarli amalda qo'llanilmaydi, chunki uning mazmuni bo'yicha u hakamlik bitimini, aslida, takrorlaydi va undan faqat alohida hujjat shaklida tuzilganligi bilan farq qiladi. Shu munosabat bilan hakamlik sudi to'g'risida bitimlar tuzishning mahalliy amaliyotida hakamlik shartnomasini hakamlik kelishuvi bilan birlashtirish, ikkinchisini kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarga nisbatan kengaytirish odatiy holdir.

Shunday qilib, O'zbekistonda hakamlik bitimi va hakamlik to'g'risidagi shartnoma o'rtasida ikkita muhim farq mavjud. Birinchidan, hakamlik to'g'risidagi shartnoma boshqa hujjatning ajralmas qismi, hakamlik bitimi esa alohida mustaqil hujjatdir. Ikkinchidan, hakamlik shartnomasi faqat tomonlar o'rtasida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarga, hakamlik bitimi esa allaqachon yuzaga kelgan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarga nisbatan qo'llaniladi. Hakamlik shartnomasining yana bir o'ziga xos xususiyati sifatida uning avtonomiyasini ta'kidlash kerak. Har qanday shartnomaning (shartnoma va boshqalar) ajralmas qismi bo'lib, u go'yo undan alohida mavjud. Bu hakamlik sudi tomonidan asosiy

shartnomaning haqiqiy emasligini tan olgan taqdirda namoyon bo‘ladi. Bu avtomatik ravishda unga kiritilgan bandning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi va vujudga kelgan nizolarni hakamlik sudida ko‘rishga monelik qilmaydi.

Bir qator mualliflarning ta’kidlashicha, hakamlik sudida nizoni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan bandi shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma muddati tugaganidan keyin ham o‘z qonuniy kuchini saqlab qolishi mumkin. Bu tomonlar o‘rtasidagi muddati o‘tgan shartnoma bilan tartibga solinadigan ish munosabatlari davom etgan va tomonlar boshqacha kelishuvga erishmagan hollarda sodir bo‘ladi.

Xorijiy amaliyotga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xususan, taraflar nizo vujudga kelgan vaqtda mazkur nizoni hakamlik sudiga topshirish uchun o‘zaro tuzilgan shartnoma bandiga alohida kiritib qo‘yilgan. Shunda da’vogar ma’lum vaqtdan so‘ng yuzaga kelgan nizo bo‘yicha hakamlik sudiga murojaat qilgan. Biroq javobgar o‘zining moliyaviy ahvoli og‘irlashganligi sababli bankrot deb topish to‘g‘risida vakolatli sudga murojaat qilgan. Xorijiy sudlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu holatda davlat sudyalari tomonidan mazkur nizoning ko‘rib chiqilishi qayd etib o‘tilgan. Misol uchun, Amerika doktrinasi ushbu muammoga ko‘rsatilgan yondashuvga rozi bo‘lmasada, Amerika bankrotlik sudlari to‘lovga layoqatsizligi to‘g‘risidagi ish yuritish qo‘zg‘atilganligi sababli hakamlik sudiga topshirish uchun o‘zaro tuzilgan shartnoma bandini (arbitraj bitimlarini) bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi [9, 79–81-b.].

Milliy amaliyotda ikki xil bo‘lgan muqobil, ya’ni nizolarni hakamlik sudida hal qilish bo‘yicha Savdo sanoat-palatasi huzuridagi Hakamlik sudlari yoki vakolatli sud (yo bo‘lmasa boshqa, ya’ni O‘zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi)da ko‘rib chiqilishi mumkinligi ko‘rsatilgan holda shartnomaga kiritilgan bandlari mavjud.

Birinchidan, ular kelajakdagi nizoni tomonlarning tanloviga ko‘ra bir nechta hakamlik sudlaridan biriga o‘tkazish yoki vakolatli sudga ko‘rish imkoniyatini ta’minlaydi. Bunday muqobil qoidalar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har xil turdagi nizolarni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish masalasini hal qilishda juda keng tarqalgan. Keyinchalik muayyan nizo yuzaga kelganda, taraflar o‘zlari tanlagan hakamlik sudlari yoki vakolatli sudan qaysi biri o‘zlarining ixtisosligi bo‘yicha ushbu nizoli vaziyatni eng malakali va obyektiv tarzda hal qilishga qodirligini aniqlaydilar [10, 15-b.] va buni hakamlik yoki vakolatli sudga kiritgan da’vo arizasiga kiritadilar.

Biroq vujudga kelgan nizolarni hakamlik sudida ko‘rib chiqish bo‘yicha shartnoma bandiga kiritilgan bunday muqobil tartib kelajakdagi nizolar toifalarining yurisdiksiyasi masalalarini u yoki bu hakamlik sudiga aniq belgilashni yoki nizoli huquqiy munosabatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlarning o‘zaro tanlovi bo‘yicha qo‘shimcha hakamlik bitimini tuzishni talab qiladi. Aks holda, bunday shartnoma bandi haqiqiy emas deb topilishi lozim, chunki u haqiqatda bo‘lajak da’vogarga hakamlik sudini belgilashda ustunlik huquqini beradi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda taraflarning joylashgan joyidagi hakamlik sudida nizoni hal qilishni nazarda tutuvchi muqobil shartnoma bandlarini tuzish hollari ham mavjud [11, 3-b.]. Biroq ushbu vaziyatda ham hakamlik sudida kelajakda nizo hal qilinadigan hakamlik sudlarining nomlari aniq belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, nizo yuzaga kelgan taqdirda, uni da’vogarning bir tomonlama ixtiyori asosida hal qilish uchun hakamlik sudi yoki davlat sudiga o‘tkazish imkoniyatini belgilovchi muqobil bandlar toifasiga kiradi. Bunday muqobil shartnoma bandlarining qonuniyligini qo‘llab-quvvatlagan holda, L.G. Balayan muqobil yurisdiksiya hakamlik

kelishuvining haqiqiylikiga shubha tug'dira olmasligini ta'kidladi [12, 198-b.].

Biroq, bizning fikrimizcha, bunday izohlar asossizdir. Bu holat shundan iboratki, agar taraflar shunga o'xshash muqobil shartnoma bandlarini tuzsalar, bu, birinchi navbatda, tomonlar nizoni hakamlik sudiga topshirish bo'yicha aniq kelishuvga erishganliklarini ko'rsatmaydi va ikkinchidan, u erishilgan kelishuvni mohiyatan bekor qiladi, chunki u da'vogarga hakamlik sudiga murojaat qilishni bir tomonlama rad etish huquqini beradi. Bu jihatga XX asrning boshlarida hakamlik muhokamasi sohasidagi taniqli rossiyalik ekspert A.F. Volkov "hakamlik bitimining elementi hukmron sudini istisno qilish" ekanligi muhimligini ta'kidladi [13, 97-b.]. Mahalliy va xorijiy taniqli doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlarining standart hakamlik bitimlarida ham, muqobil shartnoma bandlarida ham bunday imkoniyat umuman nazarda tutilmagani buning yorqin dalilidir. Bundan tashqari, yakka tartibdagi xalqaro arbitraj sudlari muqobil shartnoma bandlarida, agar taraflar uni hakamlik sudiga topshirish to'g'risida kelishuvga erishgan bo'lsa, nizoni davlat sudida ko'rib chiqish mumkin emasligini majburiy ravishda belgilaydi [14, 78-b.].

Ko'rinib turibdiki, bu masalani ko'rib chiqishda uni boshqa tomondan baholash kerak. Bizning fikrimizcha, V.N. Anurov haqli ravishda ko'rib chiqilayotgan shartnoma bandining muqobil shaklini o'z huquqlarini himoya qilish shaklining "taraflardan birini tanlash imtiyozi to'g'risidagi bandi deb atash mumkin" deb ta'kidlaydi.

Bu fikrni rivojlantirar ekan, u javobgarining protsessual huquqlarini buzuvchi bunday shartnoma bandi ehtimolini qayd etadi, buning natijasida u "nohaq shartnoma sharti sifatida haqiqiy emas deb topilishi mumkin" [15, 167-184 b.].

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Kongressning "Arbitration Fairness Act" (AFA) deb nomlanuvchi qonunda iste'molchilar va

mehnat nizolariga nisbatan nizodan oldingi arbitraj (hakamlik) bitimlari haqiqiy emasligi va ijro etilishi mumkin emasligi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, nizodan oldingi hakamlik bitimlari, agar ular kelishuv kuchlari teng bo'lmagan tomonlar o'rtasidagi shartnomalarni tartibga solish uchun mo'ljallangan qonunlar bo'yicha kelib chiqadigan nizolarga taalluqli bo'lsa, haqiqiy emasligini ko'rsatadi [16, 28-b.]. Qadimgi nemis ta'limoti va huquqshunosligida bu hakamlik sudi hakamlik bitimining haqiqiy yoki haqiqiy emasligi to'g'risida qaror qabul qiladigan birinchi va oxirgi sud ekanligini anglatadi. U hakamlik bitimini haqiqiy deb tan olgandan keyin ish bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi [17, 95-b.].

Xususan, YUNSI TRAL Model qonunining 7-moddasiga ko'ra, "arbitraj (hakamlik) bitimi" yozma shaklda tuzilishida belgilab qo'yiladigan talablarning ayrimlari bajarilmasdan tuzilishi mumkin. Masalan [18, 48-b.]:

- agar dengizni qutqarish shartnomasi arbitraj bandini o'z ichiga olgan oldindan mavjud bo'lgan standart shartnoma shakliga asoslanib, radio orqali og'zaki tuzilgan bo'lsa;

- arbitraj bandini o'z ichiga olgan standart shaklga havola qilish yoki bajarish orqali tuzilgan shartnomalar;

- og'zaki tuzilgan, lekin keyinchalik yozma ravishda tasdiqlangan yoki boshqa bir taraf tomonidan bir tomonlama o'rnatilgan va boshqa taraf e'tiboriga yetkazilgan umumiy savdo tartiblari hamda shartlari kabi hakamlik sudining bandini o'z ichiga olgan yozma hujjat bilan bog'langan shartnomalar.

Bizning fikrimizcha, V.V. Proxorenkoning ilgari surgan "agar hakamlik sudi to'g'risidagi bitimning yozma shakliga rioya qilinmasa, u tuzilmagan deb hisoblanadi, tomonlar uchun hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi va ularni nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirishga majbur qilmaydi" [19, 76-b.], degan fikrlari o'rinlidir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hakamlik sudi da'vo arizasini olgandan so'ng ishni

ko‘rib chiqish imkoniyati to‘g‘risida qaror qabul qilishi (ya‘ni ushbu nizoli huquqiy munosabatlarni hal qilish uchun uning vakolati masalasini ko‘rib chiqishi) kerak. Buning uchun qonuniy talablarga muvofiq, hakamlik sudi taraflarning nizoni unga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimning yoki shartnoma bandida mavjudligi va asosligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Binobarin, hakamlik sudi to‘g‘risidagi bitimning yozma shakliga rioya qilmagan taqdirda, u faqat ushbu nizoli huquqiy munosabatlarni hal qilish vakolatiga ega emas, degan xulosaga kelishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 122-moddasi va Iqtisodiy protsessual kodeksining 107-moddasiga ko‘ra, taraflar o‘rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga ko‘rish uchun topshirish to‘g‘risidagi kelishuvi mavjud bo‘lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo‘lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko‘rilishiga qarshi bo‘lgan javobgar nizoning mazmuni bo‘yicha o‘zining birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining hal qiluviga o‘tkazish to‘g‘risida iltimosnoma bersa, arizani (da‘vo ariza) ko‘rmasdan qoldiradi. Hakamlik bitimida tomonlar nizoni hal qilishni rejalashtirgan aniq hakamlik sudi, uning rasmiy nomi va yuridik manzili ko‘rsatilishi kerak. Buning sababi shundaki, ba‘zi viloyatlarda va hatto shaharlarda bir necha o‘nlab hakamlik sudlari mavjud bo‘lib, tomonlar vujudga kelgan nizolarni hakamlik sudida hal qilish bo‘yicha shartnoma bandida ko‘rsatib yoki hakamlik bitimini tuzib, shu bilan ma‘lum bir sudning Nizomi va qoidalariga rioya qilishga rozi bo‘lgan holda, ularga murojaat qiladilar. Bunday holatlarda hakamlik sudlari o‘ziga xos bo‘lib, o‘zaro bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumining 2012-yildagi 238-son-

li qarorida ham hakamlik bitimi yuridik va jismoniy shaxslarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi yozma kelishuvi hisoblanishi va bunday bitim mavjud bo‘lgan taqdirdagina nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkinligiga qaratilishi, hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo‘lgan shartnoma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkinligi va boshqa holatlar qayd etib o‘tilgan.

Xalqaro arbitraj hujjatlarida arbitraj (hakamlik) bitimining talabi, arbitrajning mohiyatini tashkil etishi va lex arbitri YUNSTRAL Model qonunining 7-moddasida qayd etib o‘tilgan. Shu sababli ba‘zi hollarda mazkur bitim tuzilganligi bo‘yicha taraflar o‘rtasida nizolar bo‘lishi mumkin. Boshqa hollarda hakamlik bitimini tuzish uchun ma‘lum bir shaxs tegishli ravishda vakolatga egami yoki muomala layoqati mavjudmi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Boshqa hollarda ular aynan nima to‘g‘risida kelishib olganligi to‘g‘risida nizo ham kelib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, Fransiyada ham hakamlik bitimining mohiyati tomonlarning o‘z nizolarini hakamlik sudiga topshirishda ixtiyoriy roziligidir.

Hakamlik bitimida qo‘shimcha ravishda quyidagilar bo‘lishi kerak: uni tuzish joyi va sanasi; uni tuzgan shaxslarning familiyasi, ismi, sharifi va lavozimlari; to‘g‘ridan to‘g‘ri hakamlik sudida qanday nizolar ko‘rib chiqilishi to‘g‘risidagi bitimning mazmuni; tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari. Hakamlik bitimi taraflar (yoki ularning bunga maxsus vakolat berilgan vakillari) tomonidan imzolanadi va shu paytdan boshlab kuchga kiradi.

Hakamlik bitimida tomonlar uning amal qilish muddatini belgilashlari mumkin. Ushbu muddat o‘tgan taqdirda, bunday shartnoma bandi yoki hakamlik bitimi o‘z kuchini yo‘qotadi (agar da‘vog‘ar va javobgar o‘zaro kelishuvga binoan ularning amal qilish muddatini uzaytirmasa) va nizo tomonlari

uni vakolatli davlat sudi yurisdiksiya tartibida hal qilishga haqlidirlar.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, hakamlik bitimi hakamlik jarayonining asosiy nuqtasidir. Hakamlik bitimisiz hakamlik (arbitraj) muhokamasini boshlash mumkin emas. Shunday qilib, hakamlik bitimi hakamlik muhokamasi jarayonining boshlang‘ich nuqtasi, hakamlik muhokamasi taraflari o‘rtasida protsessual huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishining zaruriy shartidir.

Bizning fikrimizcha, hakamlik bitimini tuzishda uni har ikki tomon imzolagan yagona hujjat shaklida rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir. Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarida hakamlik bitimi shakliga bunday talab belgilanmagan bo‘lsa-da, ushbu hujjatning ahamiyati ular o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki mavjud bo‘lgan nizo ular belgilagan hakamlikning hal etilishi va tomonlarning sudga topshirish majburiyatlarini belgilovchi yagona hujjatni tuzish maqsadga muvofiqligini taqozo etadi. Hakamlik bitimini tuzishning ushbu usuli nizoni hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida kelishuvga erishilganligi haqidagi noaniqlikning oldini oladi.

Bundan tashqari, hakamlik muhokamasi amaliyotidan ko‘rinib turibdiki, hakamlik sudlari taraflar tomonidan nizoni hakamlik sudida ko‘rib chiqish istagini bildirgan, ikkinchi taraf esa bunga e‘tiroz bildirmaydigan hujjatlar almashinuvini hakamlik bitimi deb hisoblaydi. Sud amaliyoti hakamlik bitimi tuzishning ushbu usulini qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, hakamlik amaliyoti tomonlarning ushbu sudning yurisdiksiyasiga ixtiyoriy ravishda topshirilishini ko‘rsatadigan xatti-harakatlarni hakamlik bitimi deb hisoblaydi. Xalqaro tijorat arbitraji amaliyoti va YUNSITRAL Model qonuni (7-modda) shuni ko‘rsatadiki, arbitraj (hakamlik) sudi mazkur holatda agar tomonlar da‘vo arizasi va da‘vo arizasiga nisbatan javob berilgan bo‘lsa, ar-

bitraj kelishuvi yoki hakamlik bitimi tuzilgan deb hisoblaydi.

YUNSITRAL Model qonunida arbitraj (hakamlik) bitimi elektron aloqa orqali tuzilishi mumkin, qachonki elektron aloqa: ma‘lumotlar xabari elektron, magnit, optik yoki shunga o‘xshash vositalar, shu jumladan, elektron ma‘lumotlar almashinuvi (EDI), elektron pochta, telegramma, teleks yoki telekopiya orqali yaratilgan, yuborilgan, olingan yoki saqlanadigan ma‘lumotlar bo‘lsa [20, 198-b.].

Shunday qilib, O‘zbekiston qonunchiligida ham muvofiq elektron aloqa orqali hakamlik bitimi tuzishga ruxsat beriladi. Biroq buning amalga oshishi uchun ma‘lum shartlarga rioya qilish kerak. Xususan, tomonlar bunday bitimni tuzishning elektron tartibiga, shuningdek, elektron hujjatlariga taqdim etilishi kerak bo‘lgan talablar bo‘yicha maxsus kelishuvga erishishlari lozim. Elektron imzo juda muhim vazifani bajaradi. Bu elektron hujjatning rekviziti bo‘lib, u, o‘z navbatida, ikki tomonlama funksiyani bajaradi: birinchidan, u ushbu elektron hujjatni qalbakilashtirishdan himoya qilish uchun mo‘ljallangan, ikkinchidan, bu tomonlar o‘rtasida huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi uchun asosdir. Shu bilan birga, elektron imzo, mutaxassislar ta‘kidlaganidek, quyidagi funksiyalarni bajaradi [21, 128-b.]:

- elektron hujjat yoki xabarni kim imzolaganligini ko‘rsatadi;
- elektron hujjat vakolatli shaxs tomonidan imzolanganligini kafolatlaydi;
- imzolangan hujjatning haqiqiyliги va o‘zgarmasligini ta‘minlaydi;
- bitim tarafining irodasini ifodalaydi;
- elektron aloqa orqali tuzilgan bitimning yozma shaklini anglatadi.

An’anaga ko‘ra, bitim shakliga rioya qilmaslik oqibatlari bunday bitimning haqiqiy emasligini ko‘rsatadi. Bitim shakliga rioya qilmaslik bunday bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da‘vo qo‘yish uchun

asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bitimning haqiqiy emasligi hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi. Shu sababli tuzilayotgan bitim shaklining buzilishini kvalifikatsiya qilish kontekstida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarni bartaraf etish nuqtai nazaridan, bunday bitimni tuzmaslik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari o‘rinli ko‘rinadi.

Hakamlik amaliyoti uchun hakamlik bitimi tuzishda amal qilish shartlari muhim ahamiyatga ega. V. Xvaley hakamlik bitimlarining haqiqiy emasligi uchun asoslarni tasniflab, bunday bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkinligini yozadi, agar u:

– xohish-irodasi bilan tuzilmagan (aldash, avrash, qo‘rqitish, zo‘ravonlik va boshqalar ta‘sirida);

– huquqiy muomala layoqati yoki muomala layoqatiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

– qonun hujjatlarida belgilangan shaklga rioya qilmasdan sodir etilgan bo‘lsa;

– hakamlik bitimi belgilangan barcha muhim shartlarni o‘z ichiga olmasa, shu jumladan, nizoni hakamlik sudiga berishning aniq niyatini o‘z ichiga olmasa;

– hakamlik to‘g‘risidagi amaldagi qonunning majburiy qoidalariga zid bo‘lsa;

– hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lmagan masalalar bo‘yicha tuzilgan bo‘lsa.

Ko‘rib turganingizdek, hakamlik bitimlari haqiqiy emasligining yuqoridagi tasniflari, asosan, fuqarolik huquqi nazariyasida ishlab chiqilgan bitimlarning haqiqiy emasligi tasnifiga asoslanadi. Bu, shuningdek, hakamlik bitimining protsessual jihati tufayli haqiqiy emasligi uchun maxsus asoslarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi O‘zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan, nizolarning hakamlik sudi predmeti sifatida qabul qilinishi, uning shakli va mazmuni, shuningdek, hakamlik bitimini tuzgan taraflarning huquqiy layoqati (yuridik shaxsligi), ularning irodasini ifodalashning ixtiyoriyligi (“Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi

qonunida nazarda tutilgan, ammo uning majburiyati fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi) bo‘yicha talablar bajarilmasa, hakamlik bitimi haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shu bilan birga, 1958-yildagi Nyu-York konvensiyasi hakamlik bitimlarini og‘zaki ravishda tuzishga qarshilik qiladi, chunki ushbu Konvensiyaning 2-moddasi 1-bandiga binoan, hakamlik (arbitraj) bitimlari faqat yozma shaklda tuzilgan taqdirda tan olinadi [22, 15-b.].

Hakamlik bitimini tuzish imkoniyati har doim ma‘lum bir nuqta bilan cheklangan. Ushbu cheklov obyektiv xarakterga ega bo‘lgan holatlar bilan belgilanadi. Tomonlar, shu jumladan, vakolatli (davlat) sudida (ham xalqaro tijorat arbitraj sudida) ko‘rib chiqilayotgan nizo bo‘yicha hakamlik bitimini tuzish huquqiga ega. Biroq bu holda hakamlik bitimi faqat vakolatli (davlat) sudi nizo bo‘yicha qaror qabul qilgunga qadar tuzilishi mumkin. Biz moddiy-huquqiy munosabatlarning mohiyati bo‘yicha nizoni hal qiladigan davlat sudi qarorini nazarda tutmoqdamiz. Mazkur nuqtai nazar hakamlik bitimi faqat ish birinchi instansiya sudida ko‘rib chiqilayotgan taqdirdagina tuzilishi mumkinligini anglatadi. Birinchi instansiya sudi ishni ko‘rib chiqqan, nizoli huquqiy munosabatlarning mohiyati to‘g‘risida qaror qabul qilgan va ish boshqa yuqori instansiyada (apellatsiya yoki kassatsiya) bo‘lgan taqdirda, tomonlar ushbu nizoni hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida bitim tuzishga haqli emas. Shu bilan birga, agar yuqori instansiya birinchi instansiya sudining qarorini bekor qilsa va ishni yangi ko‘rib chiqish uchun o‘sha instansiyaga yuborsa, tomonlar ishni hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida bitim tuzish huquqidan mahrum qilinmaydi. Biroq birinchi instansiya sudi nizoning mohiyati to‘g‘risida yangi qaror qabul qilingunga qadar hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida bitim tuzish huquqi amal qiladi.

Xuddi shu holatda, agar vakolatli sud da‘vo arizasi berilgandan keyin hakamlik bitimi tuzilganligi va ish hakamlik sudiga ko‘rib

chiqish uchun berilganligini aniqlasa, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlilik sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlilik sudiga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo'lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko'rilishiga qarshi bo'lgan javobgar nizoning mazmuni bo'yicha o'zining birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlilik sudining hal qiluviga o'tkazish to'g'risida iltimosnoma bersa, davlat sudi arizani ko'rib chiqmasdan qoldiradi (FPKning 122-moddasi, IPKning 107-moddasi). Bu qoida taniqli protsessual prinsip - ne bis in idem (bir ishda ikkita qaror bo'lishi mumkin emas) bilan bog'liq.

Xalqaro tijorat arbitraj amaliyoti mahalliy hakamlilik sudlari amaliyotida o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan muammolardan birini aniqladi. Gap muqobil hakamlilik bitimlari haqida bo'lib, unga ko'ra, nizolarni hakamlilik sudida yoki davlat sudida ko'rib chiqish imkoniyatiga ruxsat beriladi. Adabiyotlarda bunday hakamlilik bitimlarini bekor qilish

xavfi qayd etilgan.

Xorijiy davlatlarning amaliyoti sud organlari tomonidan muqobil hakamlilik bitim (shartnoma sharti)lariga qarama-qarshi munosabatni ko'rsatadi. Ba'zi hollarda davlat sudlari bunday bitimlarni bekor qilish kerak deb hisoblaydi; boshqa hollarda ularning yuridik kuchini tan oladi va tijorat arbitraj (hakamlilik sudlari) foydasiga ustuvor ahamiyat beradi. Ammo xorijiy mamlakatlarda muqobil bitim (shartnoma shartlari)lar tendensiyasi ijobiydir.

Bugungi kunda milliy qonunchiligimiz uchun bu muammo unchalik dolzarb emas. Shu bilan birga, nazariy nuqtai nazardan muqobil hakamlilik bitim (shartnoma shartlari)larini tuzish maqbul ko'rinadi. Bunday bitimlarni tuzishda tomonlar nizoni hakamlilik sudiga topshirish shartlarini sinchkovlik bilan ko'rsatishi kerak, chunki bunday bitimning muhim shartlarining o'ziga xosligi yo'qligi sababli hakamlilik bitimini haqiqiy emas deb baholashga yo'l qo'ymaslik kerak bo'ladi.

REFERENCES

1. Ro'zinazarov Sh., Mamasiddikov M., Masadikov Sh. Hakamlilik muhokamasi haqida nimalarni bilish kerak? [What do you need to know about arbitration proceedings?]. Tashkent, 2017, p. 78.
2. Gosudarstva Sentral'noy i Vostochnoy Yevropi i SNG [International Commercial Arbitration. States of Central and Eastern Europe and the CIS]. Ed. A. Tinel', V. Xvalen. Moscow, 2001, pp. 245, 103, 122, 276, 392.
3. Mindagulov A.H. Treteyskiy sud v Kazaxstane: problemi pravovogo regulirovaniya. Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii KAZPOU «Yuridicheskaya nauka i praktika» [Opening remarks by the head of the permanent theoretical seminar of KAZPOU "Legal Science and Practice"]. Arbitration Court in Kazakhstan: problems of legal regulation. Materials of the international scientific and practical conference. Astana, February 3, 2003. Rep. ed. M.K. Suleimenov. Almaty, 2003, pp. 3-4.
5. Kotelnikov A.G. Negativnie posledstviya zaklyucheniya arbitrajnogo soglasheniya. Arbitrajniy i grajdanskiy protsess [Negative consequences of concluding an arbitration agreement. Arbitration and civil procedure]. Moscow, 2004, no. 8, p. 39.
6. Keylin A.D. Sudoustroystvo i grajdanskiy protsess kapitalisticheskix gosudarstv [Judiciary and civil process of the capitalist states]. Part 3. Arbitration. Moscow, 1961, pp. 107-113.

7. Dmitrieva G.K. Mejdunarodniy kommercheskiy arbitraj [International commercial arbitration]. Moscow, 1997, p. 30.
8. Keylin A.D. Sudoustroystvo i grajdanskiy protsess kapitalisticheskix gosudarstv [Judiciary and civil process of the capitalist states]. Part 3. Arbitration. Moscow, 1961, p. 114.
9. United Nations Commission on International Trade Law, UNCITRAL, Model Law on International Commercial Arbitration. As adopted by UNCITRAL on 21 June 1985, was adopted by the UN General Assembly in 1985, General Assembly Resolution 40/72, 11 December 1985; with revisions, as amended by UNCITRAL and adopted on 7 July 2006, adopted by the UN General Assembly in 2006. General Assembly Resolution 61/33, 4 December 2006, pp. 79–81.
10. Croft C., Kee Ch., Waincymer J. A guide to the UNCITRAL arbitration rules. USA, New York, Cambridge University, 2013, p. 15.
11. Mindagulov A.H. Treteyskiy sud v Kazaxstane: problemi pravovogo regulirovaniya. Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii KAZPOU «Yuridicheskaya nauka i praktika» [Opening remarks by the head of the permanent theoretical seminar of KAZPOU “Legal Science and Practice”]. Arbitration Court in Kazakhstan: problems of legal regulation. Materials of the international scientific and practical conference. Astana, February 3, 2003. Rep. ed. M.K. Suleimenov. Almaty, 2003, p. 3.
12. Balayan L.G. Soglashenie o treteyskom sude – vajneyshee uslovie treteyskogo razbiratel'stva [Arbitration agreement is the most important condition for arbitration proceedings]. *Treteyskiy sud – Arbitration Court*, 2002, no. 3/4, p. 198.
13. Volkov A.F. Torgovie treteyskie sudi [Commercial Arbitration Courts]. *Treteyskiy sud – Arbitration Court*, 2001, no. 5/6, p. 97.
14. Gosudarstva Sentral'noy i Vostochnoy Yevropi i SNG [International Commercial Arbitration. The States of Central and Eastern Europe and the CIS]. Ed. A. Tinel', V. Xvalen. Moscow, 2001, p. 78.
15. Anurov V.N. Narushenie treteyskogo soglasheniya [Violation of the arbitration agreement]. *Treteyskiy sud – Arbitration Court*, 2002, no. 3/4, pp. 167–184.
16. Rovine A.W. Contemporary Issues in International Arbitration and Mediation. *School of Law*, New York, Fordham University, 2008, p. 28.
17. III ZR 265/03, BGHZ 162, 9, SchiedsVZ 2005, 95.
18. Croft C., Kee Ch., Waincymer J. A guide to the UNCITRAL arbitration rules. USA, New York, Cambridge University, 2013, p. 48.
19. Proxorenko V.V. O treteyskix sudax v Rossii: Vvodniy kommentariy. Normativnie akti [About Arbitration Courts in Russia: Introductory Commentary. Regulatory acts]. Ekaterinburg, AMB Publ., 2002, 76 p.
20. Balayan L.G. Soglashenie o treteyskom sude – vajneyshee uslovie treteyskogo razbiratel'stva [Arbitration agreement is the most important condition for arbitration proceedings]. *Treteyskiy sud – Arbitration Court*, 2002, no. 3/4, p. 198.
21. Hall St. Assocs. LLC v. Mattel, p. 128. Ct. 1398, 2008. Available at: <http://www.supremecourtus.gov/opinions/07pdf/06-989.pdf/>.
22. Xay Ch.H. Razbiratel'stvo i razreshenie v treteyskom poryadke xozyaystvennix sporov v Sotsialisticheskoy Respublike V'etnam [Proceedings and arbitration of economic disputes in the Socialist Republic of Vietnam]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2002, p. 15.
23. Yarkov V.V. Yuridicheskie fakti v mexanizme realizatsii norm grajdanskogo protsessual'nogo prava [Legal facts in the mechanism of realization of the norm of civil procedural law]. Ekaterinburg, 1992, p. 24.